

2019 yil yanvar-mart oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1493,7 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **105,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **788,6 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **105,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **52,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **63,3 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1493,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 105,6 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 79,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 107,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1408,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,3 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), tonna	4,9	6,0	81,7
Paxta linti, ming tonna	1,2	1,5	80,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	82,0	320,1	25,6
Vino, ming litr	29,2	0,0	29,2 m
Un, ming tonna	30,4	28,4	107,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	4,2	4,8	87,5



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 788,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 5,3 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 52,8 % ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



davomi

2018 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 37,0 % dan 2019 yilning yanvar-mart oyida 36,7 % ga tushgan.

Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 63,0 % dan 2019 yilning yanvar-mart oyida 63,3 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ortgani kuzatilmoqda.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan
mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 325,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,4% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 21,8% ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning
umumiy hajmidagi ulushi, %.**




- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

davomi

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,4 % ulushini), Namangan (11,6 %), Uchqo'rg'on (11,1 %), To'raqo'rg'on (8,1 %), Uychi tumani (7,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,0 %), Chortoq (1,7 %), Kosonsoy (2,4 %) , Chust (2,9 %) va Norin (3,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 46,7 %), Namangan (10,2 %), Uchqo'rg'on (10,9 %) hamda To'raqo'rg'on (7,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida, Pop va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (1011,0 ming so'm), Namangan tumanida (993,2 ming so'm), Uchqo'rg'on (981,4 ming so'm) va To'raqo'rg'on (551,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (541,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 285,9 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 599,7 ming so'mni, Namangan tumanida 458,4 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 276,7 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 510,0 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 945,9 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 63,3 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (85,3 %) va Uychi (69,8) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (16,4 %), Pop (19,1 %) va Norin (40,7 %) tumanlarida kuzatildi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



2019 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida 18,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarish

Mahalliyashtirish dasturi	2019 yil yanvar-mart oylarida	2018 yil yanvar-mart oylarida
Loyihalar soni, birlik	25	38
Korxonalar soni, birlik	13	19
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	18,1	204,1
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari	-	38,02
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	9	61

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 4841 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2187 tasi Namangan shahrida, 362 tasi Chust, 348 tasi Uychi, 328 tasi Namangan, 301 tasi Kosonsoy, 285 tasi To'raqo'rg'on, 204 tasi Uchqo'rg'on, 185 tasi Norin, 184 tasi Yangiqo'rg'on, 180 tasi Chortoq, 166 tasi Pop va 111 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.


2019 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



davomi

2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 573 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 56,8 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Norin tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 aprel holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80